



ONOMASTIKA MASALALARI

ВПРОСЫ ОНОМАСТИКИ

PROBLEMS OF ONOMASTICS

Burton – Стаффордшир вилоятидаги пиво ишлаб чиқаралиган кичик шаҳар. Бу иборани британиялик учувчилар биринчи марта II жаҳон уруши даврида ўзларининг урушда ҳалок бўлган қуролдош дўстларини эслаб ишлатишган.

“go for a Burton” ибораси юқоридаги факт асосида юзага келган.

Жой номлари билан боғлиқ фразеологизмларнинг аксарияти Европа тилларидан инглиз тилига ўзлашганлиги маълум. Буларнинг кўпчилиги лотин ва француз тилларидан ўзлашган.

“the land of Cockaine” – “жаннатмакон жой”, “ердаги жаннат”. (этимологик жиҳатдан француз тилидаги *pay de Cocagne*) жой номидан келиб чиққан. Шунингдек, адабиётга оид жой номлари билан келган фразеологизмлар бадий асарлар, персонажлар ва бадий цитаталар билан боғлиқ.

Масалан: “Tweedledum and Tweedledee” – “бир-бирига ўхшаш”, “икки томчи сувдек ўхшаш”. Мазкур ибора Ж.Байрон томонидан ишлатилган. XVIII асрда бир-бирига ўхшаш иккита мусиқа мактабларининг номидан келиб чиққан. [4]

Шундай қилиб, миллий ва маданий фразеологизмларнинг кўпчилиги маълум бир халқнинг кундалиқ турмуш тарзи, урф-одатлари, расм-русумлари, билан боғлиқ ҳолда юзага келади ва улар ўша халқ учун умумий ҳисобланади. Таркибида жой номлари катнашган фразеологизмларнинг семантик-грамматик хусусиятлари таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият фразеологизмлар миллий-маданий шароитда вужудга келади ҳамда тилнинг фразеологик қатламини бойитади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.: Русский язык, 1984.
2. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1985; Л.Т.Бобохонова. Инглиз тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995
3. Уразметова А.В. Топонимик компонентли фразеологизмларнинг лингвокультурологик аспекти. фил.фан. номз. дисс. – Уфа, 2006 – 196 бет.
4. Ҳайдаров А.А., Зарипова Р. Инглиз ва ўзбек тилларида жой номлари билан боғлиқ фразеологизмларнинг лингвомаданий хусусиятлари. «Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари» мақолалар тўплами. – Т.: Мухаррир, 2013. – Б. 5-7

Hamroyeva M. (BuxDU)

BADIIY ASARDA ANTROPONIMLARNING O'RNI

Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Grekcha antropos-odam, inson, nomos-ot, ism, nom, aniqlanishi nomlari demakdir.

Atoqli otlar xuddi boshqa so'zlar singari tildagi qadimiy hodisalardandir. Buni insoniyatning qadimiy o'tmishiga oid xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolgan kishi nomlari – afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlari yaqqol ko'rsatadi.

Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo'lib, bolani nomlashda ma'lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma'naviy turmush doirasining turkumidan urf-odatlar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvurlar bolalarning nomlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Turkiy xalqlarning V-VII asrlar tarixini o'zida ifodalagan O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar: Burisangmusht, Oqbosh, Qoraxon, Qorakur va boshqalar turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksemalaridir. Davrlar o'tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste'moldan chiqadi, ularning o'rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi. Kishilarning orzu-umidlari, intilish va ideallari bilan bog'liq ismlar uzoq yashaydi. Hozirgi davr kishilari ismlarining asosiy qismini ana shunday nomlar tashkil qiladi. Bu ismlarning saviysi haqida nimadir deyishdan oldin shu muhitda yaratilayotgan badiiy asarda uchrovchi ismlarning amaliy va nazariy tahlillarini o'rganish lozim. Chunonchi, har qanday makon va zamonda ham ijodkor asar yartishda milliylikni yo'qotmagan holda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim.

Ijodkor o'z fikr- mulohazalarini, nima demoqchi ekanligini, xullas, badiiy asar g'oyasini unda qo'llagan ismlar ostiga yashiradi. Zero asarda ham hayotdagidek har bir ismning o'z tilsimi bor.

O'tkir Hoshimov "Xayollarga bo'laman tutqun..." hikoyasida bosh qahramonlaridan biriga Erkin nomini qo'ygan. Erkin "o'zbekcha" hur, ozod bola degan ma'noni bildiradi. Asarda esa bu qahramonning muhabbatidan bir umrga ozod bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday boshqa personajga esa Xolida ismini tanlaydi. Bu nom esa "arabcha" abadiy, mangu turadigan yashab ketadigan umri uzoq bola deganidir. Haqiqatan ham uning ismi ham, o'zi ham Erkin uchun abadiy, mangu bo'lib qoldi.

Bundan tashqari Shukur Xolmirzayev «Arosat» hikoyasida bosh qahramoniga Xo'jamyor deb nom qo'ygan. Bu ism «fors-tojikcha» so'z bo'lib Alloh yor bo'luvchi, qo'llaydigan bola degani.

Haqiqatdan ham bu qahramonga Alloh yor bo'lgan va qo'llanganki u yozuvchi tasvirlagandek baobro' inson bo'lib yetishadi va insonlarga yordam qo'lini cho'zadi. Uning ustoz Zokir uning ko'tarilganligini eshitib uni eslaydi va tabriklagani oldiga keladi.

Zokir «arabcha» yodga oluvchi, eslovchi, xotirlovchi, ya'ni ollohga sig'inuvchi.

Abdu ismi esa «arabcha» qul, banda, degani. Haqiqatdan ham bu obraz Xo'jamyorning quli. U asarda o'zini xuddi shunday deb tanishtiradi.

Yozuvchi "Tabassum" hikoyasida esa bosh qahramoniga Jalil ismini qo'yadi. Jalil – yuksak, ulug'vor, dongdor, mashhur degan ma'noni bildiradi. Bu bilan ijodkor qahramonining insoniy fazilatlarini yuksak, ulug'vor kishi ekanligiga ishora qiladi. Qahramondagi bu sifatlar hikoyada quyidagi o'rinlarda o'z aksini topgan: "...Jalil aka o'sha qilgan xizmatlari haqqiga ittifoqo bitta ham nishon taqmadir. Nishon qayda, bir parcha yorliq ham olmadi. Lekin bu narsalarni orzu qilmagan ham edi: u qilishi lozim degan ishni qilar, aksini qilmas, yo'q - o'zligiga qarshi bormas, bunga kuchi yetmas edi..." Bu obrazdagi o'zlikni anglash, vijdoniylik, sodiqlik kabi sifatlar qahramonning ismiga munosibligini tasdiqlaydi.

Hikoyada yozuvchi Jalil otaning o'g'liga Shokir ismini qo'yadi. Bu ism ma'nosi quyidagicha: Oллоhga shukr qiluvchi, tangridan minnatdormiz, farzand berganiga shukr qilamiz. Ijodkorning bu qahramonni Shokir deb ataganining sababi, uning Jalil otaga yakka-yu yagona farzand ekanligidandir.

Shukur Xolmirzayev shu obrazning qiziga Sadaf degan nomni qo'ygan. Bilamizki, har bir ota-ona uchun farzand eng aziz va qimmatlidir. Mana shuning uchun ham ijodkor unga Sadaf ismini qo'ygan. Sadaf ismi esa adabiyotlarda quyidagicha ta'riflangan: sadafdek tish bilan tug'ilgan bola, sadafdek bebuha qimmatli qiz.

«Bir kuni sevimli nevarasi – yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadafdan so'radi».

Quyund qo'rboshi – bu hikoyadagi epizodik obrazlardan biri. Quyund ismi qattiq quyund payti tug'ulgan bolaga qo'yiladi. Bizning fikrimizcha, ijodkor qahramonning kuchli ekanligiga ishora sifatida unga shu ismni mos ko'rgan va bu bilan ism jismga mosligini isbotlagan.

«Kechasi allamahol. Jalil bezovta. Qo'rqadi. Quyundan qo'rqadi. U ho'kizdek kuchli».

Mana shunday epizodik obrazlardan yana biri Orzixo'jadir. Bu ism ikki qismdan iborat. Birinchi qism orzu, umid qilib yurib erishilgan bolaga nisbatan qo'yiladi, ikkinchi qism esa uning xo'jalardan chiqqanligiga yoki boyning o'g'li ekanligiga ishora sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, chaqaloqqa beriluvchi bir qator nomlar islom dinining muqaddas, xosiyatli oy va kunlar haqidagi g'oyalarini ifoda qiluvchi so'zlardan yasalgan: Sayid, Xo'ja, Hoji, Juma kabi. Bu so'zlar chaqaloqqa yaxshilik va baxt keltiradi, deb ishonilgan degan qarashlar ham bor. Hikoyadagi xo'ja esa bu qahramonning xo'jalardan chiqqanligiga ishora sifatida qo'llangan. Ya'ni buni quyidagi o'rnlarda ko'rish mumkin:

«–Rahmatli komandirimiz o'zi xo'jalardan chiqqan edi... Xo'jasan deb qamashgan...»

Badiiy asardagi antroponimlar tasvirlanayotgan davr, zamon tarixi, holatini mujassamlashtirgan. nafaqat nominativ, balki stilistik vazifani ham bajargan deyishimiz mumkin. Antroponimning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g'oyasini ochib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostilistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so'zlash mumkin bo'ladi.

Hojiyeva N. (Shofirkon Pedagogika kolleji)

CHILDUXTARON YOKI QIRQQIZ TOPONIMI

Tarixdan ma'lumki, xalqimiz o'zining ko'plab afsona va asotirlari bilan boshqa xalqlardan farq qilib turadi. Bir muddat ularning ahamiyati, qadr-qimmati pasayib, odamlar xotirasidan ko'tarildi. Buning sababi, sobiq ittifoqning siyosati bilan bog'liqligi hech kimga sir emas.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, diyorimizdagi barcha qadanjolar, ziyoratgohlar obod qilinib, ularning mavqeyi tobora yuksalib bormoqda. Buni biz ko'plab shaharlarning bugungi kunda sayyohlar maskaniga aylanib borayotganidan ham ko'rishimiz mumkin. Bu esa ajdodlarimizning ilmi, donishmandligi tufayli aziz